

XI. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI ISHTIROKCHILARI SONI

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyati tashqi savdo aylanmasi ishtirokchilari soni 780 taga yetdi (2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 26 taga ko'paydi). Shundan, eksportyorlar soni 170 ta (2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 11 taga ko'paydi) ni tashkil etgan bo'lsa, 610 ta (2023-yilga nisbatan 15 taga ko'paydi) importyorlar tomonidan tovar va xizmatlar import qilindi.

Shahar va tumanlar nomi	TSA ishtirokchilari soni	Shundan: eksportyorlar	Shundan: importyorlar
Xorazm viloyati	780	170	610
Urganch sh.	231	38	193
Xiva sh.	34	8	26
Bog'ot	36	12	24
Gurlan	28	8	20
Qo'shko'pir	31	15	16
Urganch	103	21	82
Hazorasp	75	7	68
Tuproqqal'a	30	6	24
Xonqa	79	16	63
Xiva	42	12	30
Shovot	44	9	35
Yangiariq	32	11	21
Yangibozor	15	7	8

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida eng ko'p eksportyorlar soni bo'yicha Urganch shahri (jamiga nisbatan 22,4 %)ga, Urganch (12,4 %), Xonqa (9,4 %), Qo'shko'pir (8,8 %), Bog'ot va Xiva mos ravishda (7,1 %) tumanlari yetakchi o'rin egalladi. Eksportchilarning eng kam ulushi esa Tuproqqal'a (3,5 %), Hazorasp va Yangibozor (4,1 %), Xiva shahri va Gurlan (4,7 %) tumanlarida qayd etildi. 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida eng ko'p importyorlar Urganch shahriga to'g'ri kelgan bo'lsa (jamiga nisbatan 31,6 %), eng kam ulush Yangibozor tumaniga to'g'ri keldi (jamiga nisbatan 1,3 %).

XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.

Viloyatda bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-sentabr oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 617,6 mln. AQSH dollarini tashkil qildi va 2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 44,2 mln. AQSH dollariga yoki 6,7 % ga kamaydi.

Tashqi savdo aylanmasi va balansi (yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)


	2023-yil	2024-yil	O‘shish sur‘ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	661,8	617,6	93,3	x
Eksport	226,5	280,8	124,0	100,0
<i>tovarlar</i>	218,2	267,1	122,4	95,1
<i>xizmatlar</i>	8,3	13,7	164,6	4,9
Import	435,3	336,9	77,4	100,0
<i>tovarlar</i>	435,3	336,9	77,4	100,0
<i>xizmatlar</i> *	-	-	-	-
Saldo	-208,9	-56,1	x	x

*) import xizmatlari hajmi yillik hisobot ko‘rsatkichlari orqali shakllantiriladi

TSAda eksport hajmi 280,8 mln. AQSH dollariga (24,0 % ga ko‘paydi) va import hajmi 336,9 mln. AQSH dollariga (22,6 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida 56,1 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH doll.)*





XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)

Xorazm viloyati jahonning **130** mamlakati bilan tashqi savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hisssasi Rossiyada (25,8 %), Pokistonda (12,8 %), Braziliyada (12,2 %), XXRda (9,3 %), Turkiyada (6,6 %) va Islandiyada (6,0 %) qayd etilgan.

<p>Rossiya</p> <p>TSA – 141 762,1</p> <p>Eksport: 72 009,5 Import: 69 752,6</p> <p> 23,0 %</p>	<p>Braziliya</p> <p>TSA – 102 448,5</p> <p>Eksport: 7,7 Import: 102 440,8</p> <p> 16,6 %</p>	<p>Pokiston</p> <p>TSA – 76 058,0</p> <p>Eksport: 75 547,3 Import: 510,7</p> <p> 12,3 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 62 459,1</p> <p>Eksport: 10 812,7 Import: 51 646,4</p> <p> 10,1 %</p>	<p>Afg'oniston</p> <p>TSA – 40 427,7</p> <p>Eksport: 40 427,7 Import: 0,0</p> <p> 6,5 %</p>
<p>Turkiya</p> <p>TSA – 34 261,2</p> <p>Eksport: 20 441,9 Import: 13 819,3</p> <p> 5,5 %</p>	<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 29 576,7</p> <p>Eksport: 24 176,6 Import: 5 400,1</p> <p> 4,8 %</p>	<p>Eron</p> <p>TSA – 23 560,9</p> <p>Eksport: 9 348,4 Import: 14 212,5</p> <p> 3,8 %</p>	<p>Islandiya</p> <p>TSA – 22 540,4</p> <p>Eksport: 1,0 Import: 22 539,4</p> <p> 3,6 %</p>	<p>Belarus</p> <p>TSA – 21 454,7</p> <p>Eksport: 3 764,6 Import: 17 690,1</p> <p> 3,5 %</p>

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo'shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

**XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI
SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**

(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	119 116,2	116 643,3	141 762,1
<i>Eksport</i>	73 812,1	61 446,5	72 009,5
<i>Import</i>	45 304,1	55 196,8	69 752,6
Braziliya	142 344,4	142 057,1	102 448,5
<i>Eksport</i>	0,9	1,4	7,7
<i>Import</i>	142 343,5	142 055,7	102 440,8
Pokiston	6 682,2	58 918,3	76 058,0
<i>Eksport</i>	6 434,6	58 646,4	75 547,3
<i>Import</i>	247,6	271,9	510,7
XXR	84 574,3	83 051,3	62 459,1
<i>Eksport</i>	8 302,5	7 894,5	10 812,7
<i>Import</i>	76 271,8	75 156,8	51 646,4
Afg'oniston	1 639,8	473,7	40 427,7
<i>Eksport</i>	1 639,8	473,7	40 427,7
<i>Import</i>	-	-	-
Turkiya	94 424,9	50 045,2	34 261,2
<i>Eksport</i>	22 432,1	10 584,7	20 441,9
<i>Import</i>	71 992,8	39 460,5	13 819,3
Qozog'iston	48 020,1	23 714,8	29 576,7
<i>Eksport</i>	37 748,4	15 556,7	24 176,6
<i>Import</i>	10 271,7	8 158,1	5 400,1
Eron	6 504,2	15 319,2	23 560,9
<i>Eksport</i>	1 771,8	6 689,9	9 348,4
<i>Import</i>	4 732,3	8 629,3	14 212,5
Islandiya	1,1	1,4	22 540,4
<i>Eksport</i>	1,1	1,4	1,0
<i>Import</i>	-	-	22 539,4
Belarus	6 750,9	18 093,6	21 454,7
<i>Eksport</i>	1 620,5	2 146,5	3 764,6
<i>Import</i>	5 130,4	15 947,1	17 690,1
Germaniya	7 594,5	28 662,9	17 216,4
<i>Eksport</i>	1 467,1	743,1	729,6
<i>Import</i>	6 127,4	27 919,8	16 486,8
Turkmaniston	8 329,0	9 301,9	8 537,3
<i>Eksport</i>	3 154,6	1 987,0	1 922,2


Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
<i>Import</i>	5 174,4	7 314,9	6 615,1
Iroq	428,5	2 299,5	4 009,5
<i>Ekспорт</i>	428,5	2 299,5	3 991,4
<i>Import</i>	-	-	18,1
Litva	3 401,2	9 104,9	3 307,9
<i>Ekспорт</i>	228,6	996,9	166,1
<i>Import</i>	3 172,6	8 108,0	3 141,8
Hindiston	6 358,7	2 414,0	2 740,4
<i>Ekспорт</i>	222,0	1 171,3	1 060,9
<i>Import</i>	6 136,8	1 242,7	1 679,5
BAA	461,8	4 180,6	1 977,1
<i>Ekспорт</i>	349,8	182,3	1 458,7
<i>Import</i>	112,0	3 998,3	518,5
Niderlandiya	252,9	994,2	1 742,1
<i>Ekспорт</i>	2,9	6,9	21,0
<i>Import</i>	250,0	987,3	1 721,1
Tojikiston	3 435,3	14 492,0	1 610,3
<i>Ekспорт</i>	3 180,7	14 467,0	1 610,3
<i>Import</i>	254,6	24,9	-
Ozarbayjon	1 643,0	595,0	1 326,6
<i>Ekспорт</i>	632,5	595,0	1 010,2
<i>Import</i>	1 010,5	-	316,4
Ukraina	2 431,5	1 009,8	1 288,6
<i>Ekспорт</i>	1 175,4	226,3	705,8
<i>Import</i>	1 256,1	783,4	582,8

Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-sentabr oyi holatiga ko'ra, 207,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 106,5 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 100,6 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln AQSH dollari, ulushi)



XORAZM VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI

(2024- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)




Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (23,0 %), Qozog‘iston (4,8 %) hamda Belarus (3,5 %) davlatlari bilan qayd etildi.

XORAZM VILOYATI EKSPORTI

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 170 taga yetdi va ular tomonidan 280,8 mln. AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (*2023- yilning mos davriga nisbatan 24,0 % ga ko‘paydi*) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.

XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-sentabr, mln.AQSH doll)



**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI
VA O'SISH SUR'ATLARI**

(yanvar-sentabr)

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Pokiston	58 646,3	75 547,3	9,1 m.	128,8	2	1
Rossiya	61 446,4	72 009,5	83,2	117,2	1	2
Afg'oniston	473,7	40 427,7	28,9	85,3 m.	22	3
Qozog'iston	15 556,7	24 176,6	41,2	155,4	4	4
Turkiya	10 584,7	20 441,9	47,2	193,1	6	5
Xitoy	7 894,5	10 812,6	95,1	137,0	7	6
Eron	6 689,9	9 348,4	3,8 m.	139,7	8	7
Iroq	2 299,5	3 991,4	5,4 m.	173,6	11	8
Belarus	2 146,4	3 764,6	132,5	175,4	12	9
Turkmaniston	1 987,0	1 922,2	63,0	96,7	13	10
Tojikiston	14 467,0	1 610,3	4,5 m.	11,1	5	11
BAA	182,3	1 458,7	52,1	8,0 m.	27	12
Qirg'iz Respublikasi	26 798,7	1 094,7	99,7	4,1	3	13
Hindiston	1 171,3	1 060,9	5,3 m.	90,6	16	14
Ozarbajjon	595,0	1 010,2	94,1	169,8	21	15
AQSh	693,9	974,0	5,0 m.	140,4	19	16
Polsha	3 427,3	781,5	4,3 m.	22,8	9	17
Germaniya	743,1	729,6	50,7	98,2	18	18
Ukraina	226,3	705,8	19,3	3,1 m.	25	19
Vyetnam	686,9	655,9	85,3	95,5	20	20



XORAZM VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI


(yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Jami eksport	226 466,7	280 760,0	115,0	124,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	101 151,0	162 819,6	166,8	161,0	44,7	58,0
Ichimliklar va tamaki	1 649,8	366,9	686,6 m.	22,2	0,7	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	3 350,9	3 538,2	87,8	105,6	1,5	1,3
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	2 378,3	2 484,2	69,6	104,5	1,1	0,9
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	-	1 123,4	-	-	-	0,4
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	1 595,5	707,9	2,3 m.	44,4	0,7	0,3
Sanoat tovarlari	80 630,0	88 201,7	93,6	109,4	35,6	31,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	439,9	481,9	2,2 m.	109,6	0,2	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	26 980,2	7 386,3	86,2	27,4	11,9	2,6
Xizmatlar	8 291,0	13 650,0	88,6	164,6	3,7	4,9

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 95,1 % ni tashkil etib, ular asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (58,0 %), sanoat tovarlari (31,4 %) va turli xil tayyor buyumlar (2,6 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln AQSH dollari, ulushi)



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI

(2024- yil yanvar-sentabr, % da)



2024- yil yanvar-sentabr oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Pokiston, Rossiya, Afg'oniston, Qozog'iston, Turkiya, XXR va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 90,0 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI

(2024- yil yanvar-sentabr)

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.

Davlatlar	Tonna (birlikda)	ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
Pokiston	11 739,3	58182,5	40,4
Afg'oniston	6 397,7	38187,5	26,5
Qozog'iston	74 912,7	20366,2	14,1
Rossiya	33 939,3	20232,0	14,0
Iroq	3 264,5	2287,5	1,6
Eron	597,0	1127,5	0,8
BAA	2 372,9	992,7	0,7
Turkiya	332,1	876,7	0,6
Ukraina	831,7	543,4	0,4
Turkmaniston	324,4	403,7	0,3
Ozarbayjon	123,9	209,0	0,1
boshqa davlatlar	1 094,3	643,5	0,4

* qiymat ifodasidan

2024- yil yanvar-sentabr oyida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 40,4 % i), bu ko'rsatkich Afg'oniston eksport hajmidan 52,4 % ga ko'p.













Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (40,4 %), Afg'oniston (26,5 %), Qozog'iston (14,1 %) hamda Rossiya (14,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-sentabr oyida 135,9 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 155,0 foizga yoki 48,2 ming tonnaga ko'paydi.

2024- yil yanvar-sentabr oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 144,1 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 61,1 foizga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 51,3 % ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-sentabr, ming AQSH dollari, ulushi qiymatga nisbatan)

<p>Dukkakli sabzavotlar</p> <p>97 683,6 ming AQSH dollari</p> <p>18 123,2 tonna</p>  <p>67,8 %</p>	<p>Karam</p> <p>5 457,8 ming AQSH dollari</p> <p>24 674,9 tonna</p>  <p>3,8 %</p>	<p>Pomidor</p> <p>2 945,0 ming AQSH dollari</p> <p>2 986,0 tonna</p>  <p>2,0 %</p>	<p>Piyoza va sarimsoq</p> <p>5 778,7 ming AQSH dollari</p> <p>30 900,4 tonna</p>  <p>4,0 %</p>
<p>Sabzi</p> <p>2 728,5 ming AQSH dollari</p> <p>11 573,3 tonna</p>  <p>1,9 %</p>	<p>Uzum</p> <p>9 656,4 ming AQSH dollari</p> <p>10 470,4 tonna</p>  <p>6,7 %</p>	<p>Bodring</p> <p>472,9 ming AQSH dollari</p> <p>626,4 tonna</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Olma</p> <p>836,0 ming AQSH dollari</p> <p>2 105,5 tonna</p>  <p>0,6 %</p>
<p>Sitrus mevalar</p> <p>289,9 ming AQSH dollari</p> <p>240,1 tonna</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Qovun-tarvuz</p> <p>4 680,4 ming AQSH dollari</p> <p>19 711,1 tonna</p>  <p>3,2 %</p>	<p>O'rik</p> <p>6 804,7 ming AQSH dollari</p> <p>6 277,1 tonna</p>  <p>4,7 %</p>	<p>Boshqa meva va savzavotlar</p> <p>6 718,3 ming AQSH dollari</p> <p>8 236,5 tonna</p>  <p>4,7 %</p>

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan dukkakli sabzavotlarning ulushi 67,8 % ni, uzum 6,7 % ni, o'rik 4,7 % ni va piyoza va sarimsoq piyoza 4,0 % ni tashkil qilgan.


Shuningdek, boshqa meva va sabzavotlarning ulushi 4,7 % ni tashkil qildi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-sentabr, ming AQSH doll.)

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



Xizmatlar eksporti hajmi 13 650,0 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 4,9 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 64,6 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (53,4 %), transport (7,8 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (19,1 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (19,7 %) hissasiga to'g'ri kelgan.




XORAZM VILOYATINING IMPORTI

2024- yilning yanvar-sentabr oyida import hajmi 336,9 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 77,4 % ni tashkil etdi.

XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-sentabr)



2023- yil

2024- yil

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Tuproqqal'a tumani 41,0 % bilan 138,1 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangibozor tumani 0,6 % bilan 2,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI

(yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024
Jami import	435 326,0	336 861,0	109,1	77,4	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	162 760,8	161 167,8	106,9	99,0	37,4	47,8
Ichimliklar va tamaki	205,8	391,9	206,3	190,4	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	32 212,7	29 548,8	114,1	91,7	7,4	8,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	8 739,7	5 280,9	168,5	60,4	2,0	1,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2 454,7	1 712,5	118,2	69,8	0,6	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	17 219,9	18 242,2	94,3	105,9	4,0	5,4
Sanoat tovarlari	27 284,2	14 340,1	96,8	52,6	6,3	4,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	173 605,9	99 107,6	116,7	57,1	39,9	29,4
Turli xil tayyor buyumlar	10 842,4	7 069,0	68,3	65,2	2,5	2,1

. Import tarkibida eng katta ulush, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (47,8 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (29,4 %) hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (8,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI


(yanvar-sentabr)

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Braziliya	142 055,7	102 440,8	99,8	72,1	1	1
Rossiya	55 196,8	69 752,7	121,8	126,4	3	2
Xitoy	75 156,8	51 646,4	98,5	68,7	2	3
Islandiya	-	22 539,4	-	-	-	4
Belarus	15 947,1	17 690,1	3,1 m.	110,9	6	5
Germaniya	27 919,8	16 486,8	4,6 m.	59,1	5	6
Eron	8 629,2	14 212,5	182,3	164,7	7	7
Turkiya	39 460,5	13 819,3	54,8	35,0	4	8
Turkmaniston	7 314,9	6 615,1	141,4	90,4	10	9
Qozog'iston	8 158,1	5 400,1	79,4	66,2	8	10
Litva	8 108,0	3 141,8	2,6 m.	38,7	9	11
Niderlandiya	987,3	1 721,1	4,0 m.	174,3	26	12
Hindiston	1 242,7	1 679,5	20,3	135,1	22	13
Koreya Respublikasi	2 914,3	1 056,4	124,1	36,2	17	14
Ispaniya	1 488,7	824,9	5,1 m.	55,4	21	15
Italiya	2 001,2	644,2	7,3 m.	32,2	19	16
Shveytsariya	4 911,7	589,4	3,4 m.	12,0	12	17
Ukraina	783,4	582,8	62,4	74,4	27	18
Finlyandiya	3 748,7	526,0	-	14,0	16	19
BAA	3 998,2	518,5	35,7 m.	13,0	13	20

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)

2024- yil yanvar-sentabr oylari natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlaridan import ulushi **29,8 %**ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **14,7 %**ga ko'paydi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI


(2024- yil yanvar-sentabr, % da)



2024- yil yanvar-sentabr oyida viloyatimiz 59 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Braziliya, Rossiya, XXR, Islandiya, Belarus, Germaniya va Eron) jami importning 87,5 % ini tashkil etdi.


SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2024- yil yanvar-sentabr oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari (tovarlari) hajmi 14,3 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 52,6 % ni tashkil qilib, importning umumiy hajmidagi ulushi 4,3 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Sanoat mahsulotlari importi asosan yog'och va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (3,5 mln. AQSH dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (3,0 mln. AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari (2,3 mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (2,1 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Tovarlar eksporti – agar qonunchilikda boshqa tartib ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

Reeksport – xorijiy tovarlar bojxona hududidan olib chiqiladigan bojxona rejimi.

Tovarlar importi – tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kirish.

Reimport – bojxona hududidan eksport rejimida olib chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi tovarlari O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida ko‘rsatilgan muddatda (olib chiqilgan paytdan boshlab o‘n yil ichida) qaytarib olib kiriladigan rejim.

Tashqi savdo aylanmasi – mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

Tovarlar kelib chiqqan mamlakat – tovar to‘liq ishlab chiqarilgan yoki yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat “Bojxona tarifi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 26- moddasiga asosan aniqlanadi).

Tovarlarning belgilangan manzili – yuklab jo‘natish paytida tovar yetkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma‘lum bo‘lgan mamlakat.

Tovarlarning statistik qiymati – shartnoma valyutasidan qat‘i nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo‘yicha tovarlar qiymati.

Xizmatlar (ishlar) eksporti — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat‘i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

Xizmatlar (ishlar) importi — norezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlariga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat‘i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

***Ma‘lumot uchun:** O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*